Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320731

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

3-SHO'BA. AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI JADALLASHTIRISH VA ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARNI SO'ZSIZ TA'MINLASH, BARQAROR BANDLIK VA YUQORI DAROMAD TOPISHGA ERISHISH – KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM SHARTI

MAMLAKATIMIZDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'LLARI

Olimova Nodira Xamrakulovna
Farg'ona davlat universiteti, i.f.n., prof.
olimova_nh@mail.ru

Annotatsiya. O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish va salohiyatni oshirish ustunlariga tayanadi. O'zbekiston hukumatining siyosat va tashabbuslarni hayotga tatbiq etishda faol yondashuvi tadbirkorlarning ravnaq topishi uchun qulay sharoit yaratdi. Moliyaviy resurslar va malaka oshirish imkoniyatlari bilan ta'minlanganligi bu tizimni yanada mustahkamladi. Biroq, yangi O'zbekistonning tadbirkorlik sohasida barqaror o'sish va farovonlikni ta'minlash uchun ushbu qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan, mazkur ishda mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu masalaga oid istiqbolli yo'llar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Tadbirkorlik, iqtisodiyot, mexanizm, iqtisodiy siyosat, qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar, barqaror o'sish, farovonlikni ta'minlash, ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish.

Keyingi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Startaplarga kapital va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlash uchun moliyaviy yordam dasturlari joriy etildi. Infratuzilmani rivojlantirish tashabbuslari shahar markazlari o'rtasidagi aloqani yaxshiladi, biznes faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratdi. Bundan tashqari, siyosatdagi islohotlar byurokratik to'siqlarni kamaytirish, tartibga solish tartib-qoidalarini soddalashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan [2].

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida»gi PF-5780-son Farmonida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish hamda kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, xotin-qizlar va yosh avlod tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi dasturlarda davlat resurslaridan oqilona foydalanish, ularning maqsadliligini ta'minlash va samaradorligini oshirish maqsadida 2018 yil 7 iyundagi «Har bir oila - tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida»gi PQ-3777-son, 2018 yil 14 iyuldagi «Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3856-son va 2019 yil 7 martdagi «Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni

Published: 23.12.2024
Cite this article: Olimova Nodira Xamrakulovna (2024). Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbolli yo'llari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320731
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4231-son qarorlari bilan respublikada kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, aholining o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirish, ayollar uchun imkoniyatlarni oshirish va yosh avlodni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan” [4].

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018 yilda 18 804 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib, 30 327 taga yetgan yoki 2018 yilga nisbatan 11 523 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan kichik korxonalarning soni 2018 yilning yanvar-dekabrida 28 154 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 43 910 ta yoki 15 756 taga oshgan. O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018 yilning yanvar-dekabrida 3 618 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, 6 052 tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2 434 taga oshgan. Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018 yilning yanvar-dekabrida 37,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilning yanvar-dekabrida esa 37,8 % ga yetgan yoki 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,6 % ga ko‘paygan [3].

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018 yilda 55,7 % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 54,7 % yoki 1,0 % ga kamaygan. O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018 yilda 7,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 7,5 % ga yetgan yoki 0,4 % ga ko‘paygan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 mart PF-5690-sonli farmoniga muvofiq tadbirkorlik sub’yektlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, ularning faoliyatida qonuniylikni ta’minlash, respublikada investitsiya iqlimini va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va nazorat kiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi tadbirkorlik sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil tomonidan amalga oshirilishi belgilandi [4].

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi: [1]

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;
- ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqildi. Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o‘zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalarning soni 2018 yilda 35 320 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib esa 40 658 taga yetgan yoki 2018 yilning yakuniga nisbatan 5 338 taga oshgan [3].

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarmaydi deb baholagan korxonalarning soni 2018 yilda 14 318 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 37 019 ta yoki 22 701 taga oshgan. O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018 yilda 938 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 2 612 tani tashkil etib, 1 674 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o‘zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2018 yilda 69,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 50,6 % ga yetgan yoki 2018 yilga nisbatan 19,2 % ga kamaygan.

Jahonda o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kichik biznes rivojini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasini shakllantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining davlat moliyaviy, moddiy-texnik ishlanmalari va texnologiyalaridan foydalanishi uchun imtiyozli shart-sharoitlarni yaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini ro‘yxatga olish, ular faoliyatini litsenziyalash, mahsulotlarini sertifikatlash, ular tomonidan statistika va buxgalteriya hisobotlari topshirilishining soddalashtirilgan tartibini belgilash

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining tashki iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan ularning xorijiy mamlakatlar bilan savdo, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, axborot aloqalari rivojiga ko‘maklashish;

- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish va b.

Mamlakatimiz hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan:

- biznesni tugatishga imkon yaratuvchi, tadbirkorlik sub’yektlarini ixtiyoriy tugatish jarayoni joriy etildi;

- ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash tizimi soddalashtirildi;

- auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish mexanizmi ishlab chiqildi;

- texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarning soliq yuki kamaytirildi;

- sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirildi;

- tadbirkorlarni moddiy-texnika resurslarini mustahkamlash va erkin sotib olishiga qulay sharoit yaratishni kengaytirildi va bu sohaga bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolar o‘z yechimini topdi.

Bugun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida ishlayotgan har yuz ishchining 60 nafari mehnat qonunchiligi asosida rasmiylashtirilmaganligi, ularga konvert usulida ish haqi berilishi ushbu ishchi-xodimlarning ijtimoiy huquqlari buzilishiga olib kelmoqda. Boshqacha aytganda, kelajakda ular pensiya va boshqa nafaqa olish huquqlaridan mahrum bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugundan boshlab, har bir tadbirkor norasmiy ishlayotgan ishchi-xizmatchilarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish, mehnat daftarchalari yuritish, o‘rnatilgan tartib asosida ish haqi berish tizimini yo‘lga qo‘yib, ularning kelajak hayotidagi ijtimoiy nafaqa va pensiya olish zaminini yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, https://mitc.uz/uz/news/3680

2. Yavmutov D.Sh., Xomidov X.A. Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari. Uzbek Scholar Journal, Volume - 18, July, 2023, 34-39b., www.uzbekscholar.com

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar, Toshkent-2024.

4. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi

RELATIONSHIP BETWEEN TEAMWORK DISPOSITION, EMOTIONAL INTELLIGENCE AND PROBLEM SOLVING SKILLS

Prof.Dr. Mehmet Oğuzhan
İLBAN Balıkesir University, Burhaniye Faculty of Applied Sciences, Department of Gastronomy and Culinary Arts
ilban@balikesir.edu.tr

SUMMARY

This study examines the relationships between teamwork, emotional intelligence and problem solving skills. The main purpose is to analyze the current situation of university students studying in faculties of applied sciences in terms of these skills and to emphasize the importance of teamwork courses. The research will be conducted on undergraduate students studying at Burhaniye Faculty of Applied Sciences in the 2024-2025 academic year. In the research, which will be carried out in the relational survey model according to quantitative research methods, data will be collected with a questionnaire consisting of a personal information form, a scale of predisposition to teamwork, emotional intelligence and problem solving skills. The data obtained will be analyzed using SPSS 26.0 statistical program in computer environment. As a result of the statistical analysis, the relationship between these three variables will be examined and the effects of the teamwork course on these variables will be evaluated.